



UDK: 355(575.1)

Ixtiyor BOXODIROV,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: boxodirovixtiyor9@gmail.com, ORCID: 0009-0007-3231-6914

O'zMU professori (DSc) A.Yermetov taqrizi asosida

ACTIVITIES OF THE “TURKESTAN MILITARY ORGANIZATION” AIMED AT ELIMINATING SOVIET RULE IN TURKESTAN

Annotation

This article highlights the overthrow of the monarchy in the Russian Empire and, as a consequence, the transfer of power in the territory of the former empire first to the Provisional Government, and then to the Soviet government. The main part of the research reveals the activities of officers of the former empire and the Turkestan Military District, who opposed Soviet power in Turkestan, aimed at overthrowing the Soviet regime in the region.

Keywords: military district, front, front-line soldiers' union, officer, regiment, militia, diplomatic mission, coup d'état, weapons.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ “ТУРКЕСТАНСКОЙ ВОЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ” НАПРАВЛЕННАЯ НА ЛИКВИДАЦИЮ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В данной статье освещается свержение монархии в Российской империи, в результате чего власть на территории бывшей империи перешла сначала к Временному правительству, а затем к советскому правительству. В основной части исследования раскрыта деятельность офицеров бывшей империи и Туркестанского военного округа, находившихся в оппозиции к советской власти в Туркестане, направленная на свержение советской власти в крае.

Ключевые слова: военный округ, фронт, союз фронтовиков, офицер, полк, милиция, дипломатическая миссия, государственный переворот, вооружение.

“TURKISTON HARBIY TASHKILOTI”NING TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINI TUGATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasida monarxiya tuzumining ag'darilishi va buning oqibatida sobiq imperiya hududida hokimiyat avval Muvaqqat hukumat, so'ngra sovet hukumati qo'liga o'tganligi yoritilgan. Tadqiqotning asosiy qismida Turkistonda sovet hokimiyatiga muxolifatda bo'lgan sobiq imperiya va Turkiston harbiy okrugi ofitserlarining o'lkada sovet tuzumini ag'darishga qaratilgan faoliyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: harbiy okrug, front, frontchilar ittifoqi, ofitser, polk, militsiya, diplomatik missiya, to'ntarish, qurol-yarog'.

Kirish. Birinchi Jahon urushi maydonlaridagi ulkan yo'qotishlar, qaram o'lkalardagi nochor vaziyat, Rossiya imperiyasining markaziy hududidagi iqtisodiy tanglik 1917-yilga kelib, butun Rossiya imperiyasini inqilobiy-siyosiy jarayonlar domiga tortilishiga sabab bo'ladi. 1917-yil 28-fevralda Petrogradagi inqilobiy voqealar Petropavlovsk qal'asi va Qishki saroyning bosib olinishi va imperiya hukumati vazirlarining qamoqqa olinishi bilan yakun topdi. Fevral inqilobi natijasida Rossiya imperiyasida mutloq monarxiya tuzumi quladi va Romanovlar sulolasi ag'darib tashlandi. Hokimiyat Muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi. Bu voqealar Turkistonda kelajakdagi taddirini ham o'zgartirib yubordi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga tegishli adabiyotlarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchisi XX asrning 20-80 yillarida yozilgan, yani sovet davrida yaratilgan adabiyotlardir. Bu davrda yaratilgan adabiyotlarda mavzu asosan sovet mafkurasi doirasida tahlil etilgan. Ikkinchisi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng nashr etilgan tadqiqotlardir. Uchinchisi turi xorijiy adabiyotlardir. Sovet davrida yaratilgan asar, maqola va tadqiqot ishlariga ham holislik, haqqoniylik va tanqidiylik ko'zi bilan qarash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng, tarixchilar oldida keng imkoniyatlar va vazifalar paydo bo'lib,

tarixni haqqoniy va holis yozishga kirishilgan. Bu borada Mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan yangicha metodologik usul va yondashuvda yozilgan risolalar, darsliklar, kitoblar bilan bir qatorda Q.Rajabov, Z.G'ulomov, N.Norjigitova, A.Rahmonqulova, A.Hudoyqulov, F.Nabiyev, S.Azamxo'jayev, R.Abdullayev, M.Haydarov, A.Yermetov, D.Ziyoyeva, S.Shodmonovalarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. O'rganilayotgan tadqiqot mavzusiga oid yaratilgan qator chet el adabiyotlari ham mavzu tarixnafisligida muhim o'ringa egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Muvaqqat hukumati hokimiyati ham uzoq davom etmagan. 1917-yil oktabr oyida V.I.Lenin boshchiligida bolsheviklar qurolli qo'zg'olon yordamida hokimiyatni egallab oladilar. Rossiyada hokimiyatni bolsheviklar (sovetlar) qoliga o'tishi Turkistondagi siyosiy jarayomga ham ta'sir etmay qolmagan. 1917-yil 28-oktabr – 1-noyabr kunlarida Toshkentda ham bolshevik, menshevik va so'l eserlar qurolli qo'zg'olon orqali hokimiyatini qo'lgan kiritgan. Sovetlar Toshkent bilangina cheklanib qolmay 1917-yil 1-noyabrda Yangi Termiz va Kattaqo'rg'on, 25-noyabrda Kogon, 28-noyabrda Samarqandda, 7-dekabrda Namanganda

hokimiyatni egalladilar[1]. Ular tomonidan 1918-yil fevralda Qo'qon shahridagi Turkiston muxtoriyati ham qonga botiriladi.

Turkistonda hokimiyat uchun faqat sovetlar kurash olib bormagan. Sobiq imperiya davrida yuqori mavqeda bo'lgan harbiylar, ofitserlar, ularning yashirin tashkilotlari ham o'lkada hokimiyat uchun kurash olib borgan. Shunday tashkilotlardan biri Turkiston harbiy tashkiloti ("Turkestanskoy voyennoy organizatsii") edi. Uning vujudga kelishi 1918-yil boshida Rossiyada keng tarqalgan "Frontchilar ittifoqi" harakati bilan chambarchas bog'liq edi. Hokimiyatga kelgan sovet hukumati armiyada demobilizatsiya boshlagach frontdagi harbiylar o'z uylariga qayta boshlagan.

Harbiylar, asosan ofitserlar fuqorolik ishlari mutaxassisliklariga ega bo'lmaganliklari uchun iqtisodiy inqiroz vaqtida katta qiyinchiliklarga uchragan. O'zaro yordam berish va omon qolish uchun ofitserlar ittifoqlarga birlasha boshaganlar.

"Toshkent frontchilar ittifoqi" atrofida 1918-yil fevralda Turkiston harbiy tashkilotiga dastlabki tamal toshi qo'yilgan va u sekin asta yashirin rivojlantirila boshlangan. Sovetlarga qarshi yashirin tashkilot barpo etilishida asosan sobiq imperiya va Turkiston harbiy okrugi ofitserlari, sobiq amaldorlar hamda bir qancha burjuaziya, ishchi sinf vakillari ishtirok etgan. Tashkilotning asosiy maqsadi qurolli qo'zg'olon yordamida Turkistonda sovet hokimiyatini tugatish edi.

Turkiston harbiy tashkilotini tashkil etish va unga rahbarlik qilishda Yettisuv viloyati qo'shinlari shtabi va Toshkent harbiy bilim yurti sobiq boshlig'i general-mayor L.L. Kondratovich (1866-1920), 1-Turkiston o'qchi polkining sobiq polkovnigi P.G. Kornilov (1880-1919), polkovnik G.V. Blavatskiy, 1-Turkiston o'qchi polkining sobiq qo'mondoni polkovnik A.V. Rudnev (1879-?), Muvaqqat hukumatning Toshkentdagi sobiq komissari advokat A.D. Arsenov va tog' muhandisi, tadbirkor, bir nechta kon, shaxta va zavodlar egasi P.S. Nazarovlar (1863-1941) asosiy rollarni o'ynagan[2]. Keyinroq asosiy yyetakchilar safiga Turkiston general-gubernatorining sobiq yordamchisi general Y.P. Djunkovskiy (1867-1953) va Turkistondagi Orenbur kazaklar polka sobiq qo'mondoni polkovnik I.V. Zaytsev (1879-1934) qo'shiladi[3].

Tashkilot yuqoridan quyiga qarab qat'iy tartib asosida qurilgan. Uning butun o'lka bo'ylab deyarli barcha shaharlarda bo'limlari bo'lgan. Ashxobod, Skobelev, Andijon, Qo'qon, Samarqand, Jizzax, Avliyoota, Verniydagi bo'limlar eng faol va ishonchli hisoblangan. Ularning barchasi Toshkent shahridagi rahbariyat va shtab bilan aloqada bo'lib, uning ko'rsatmalariga amal qilishlari va buyruqlarini bajarishlari shart edi. Tashkilot a'zolari soni umumiy 3000 kishi atrofida bo'lgan, lekin maxfiylik tufayli a'zolar soni yuzasidan aniq malumotlar juda kam[4]. Polkovnik Zaytsev tashkilotni "hamma joyda aloqalar va o'z odamlariga ega edi" deb tariflagan[5]. 1918-yil iyul oyida tashkilot bilan aloqa o'rnatgan Britaniyaning Mashhaddagi harbiy missiyasi rahbari general Malleson o'z hisobotlarida "Turkiston Ittifoqi (Turkiston harbiy tashkiloti nazarda tutilgan) o'z ichiga ofitserlar va barcha obro'li va barqaror elementlarni olgan, monarxiya rejalariga ega edi" deb ma'lumot bergan[6]. Sovet qurolli kuchlari saflarida ham tashkilotning o'z josuslari bor edi. Tashkilotning Toshkent militsiyasi, shahrdagi 2 va 4-piyodalar polklarda tasiri yuqori va odamlari ko'proq edi[7]. Tashkilot a'zolari "oltilik"larga bo'lib shakllantirilgan: bir kishi o'z atrofida 5 kishini jamlagan, ular ham o'z navbatida 5 tadan a'zo yig'gan.

Turkiston harbiy tashkiloti asosiy rahbariyatini "to'rtlik" tashkil etgan. General-mayor L.L. Kondratovich – tashkilot raisi edi. Shuningdek u tashkilotga nufuzli shaxslarni jalb qilish bilan ham shug'ullangan. P.S. Nazarov – tashkilot

g'aznachisi vazifasini bajargan va turli siyosiy muzokaralar va aloqalarni yurituvchi shaxs bo'lgan. Kelajakda Kondratovich armiya qo'mondoni, Nazarov esa tuzilajak davlatchilikda bosh vazir yoki moliya vaziri lavozimini egallashi kerak edi[8]. 1918-yil avgustda polkovnik Zaytsevga tashkilot shtab boshlig'i lavozimi topshirilgan[9]. Djunkovskiy tashkilot uchun mablag' topish bilan, Kornilov va Arsenov o'lkaning tub aholisi vakillari orasida targ'ibot olib borish va ularni tashkilot faoliyatiga jalb qilish bilan ham shug'ullanishgan[10].

Turkiston harbiy tashkiloti faoliyatida hamma narsa silliq ketmagan. Qurol-yarog', pul mablag'lari yyetishmagan. Ashxobod, Farg'ona, Yettisuv va Samarqand bo'limlarida ayirmachiliklar qayd etilgan. Ularning har biri yyetakchi mavqeni egallashga, birinchi bo'lib ajralib chiqishga harakat qilgan. 1918-yil 12-iyulda Ashxobodda muddatidan oldin qo'zg'olon ko'tarildi va "Kaspiyorti fronti" paydo bo'ladi. Bu butun o'lkada avgust oyida bir vaqtda qo'zg'olon ko'tarishi rejasini barbod qildi. Keyinchalik Turkiston harbiy tashkiloti tomonidan tekshirib ko'rilganda harakatga qo'shiluvchilar va hamfikrlar miqdori avvaldan bo'rttirib yuborilganligi ham ma'lum bo'ldi. Harbiy harakatlarda ishtirok etishi lozim bo'lgan jangovor elementlar qurollanmagan, intizomsiz, tayyorgarlik ko'rmagan, asosan, o'quvchi, fuqaro yoshlar edi. Qurol-yarog' va zarur ta'minotni sotib olish, shuningdek ko'ngillilarni yollash uchun mablag' yo'q edi[11].

Biroq tashkilot rahbari general Kondratovich optimist edi. U "kuchlar yetarli, ishonchli va sodiq ekanligini bir necha bor ta'kidlar, kelajakka ishonch bilan qarar va muvaffaqiyatga ishonardi". U asosiy muammo va umumiy qo'zg'olonni kechiktirilishiga asosiy sabab mablag' ketishmovchilik deb hisoblardi[12]. Aslida tashkilot tomondagi kuchlar ham o'lkadagi siyosiy vaziyatga qarab turli tarafga tebranib turishga moyil edi. Polkovnik Zaytsev ham o'z xotiralarida general Kondratovichning rahbarlik qobiliyati va mavjud vaziyatni to'g'ri baholay olishiga shubha bilan qaragan[13]. Bunday optimizm 1918-yil Toshkentga kelgan Britaniya harbiy-diplomatik missiyasi vakillarini ham hayratda qoldirgan. Ular o'z xotiralarida "rus aksilinqilobchilari" vaziyatni shunchalik fantastik deb bilishganki, bolsheviklar hokimiyatini 70 kunlik Parij Kommunasiga qiyoslashganliklarini ta'kidlagan[14].

Shunday vaziyatda Turkiston harbiy tashkiloti Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilishga va o'lkadagi milliy ozoldik harakati ishtirokchilardan o'z maqsadlarida foydalanishni rejalashtirgan. Bir qancha muzokaralardan so'ng ingliz missiya va tashkilot o'rtasida umumiy masalalarda norasmiy kelishuvga erishiladi. Unga ko'ra Turkiston harbiy tashkiloti o'lkada sovetlarga qarshi umumiy qo'zg'olon tayyorlashi va unga rahbarlik qilishi lozim. Inglizlar esa sovetlarga qarshi kurushdagi barcha qurolli kuchlarni pul, qurol-yarog', o'q-dori va turli texnik vositalari bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Sovet hokimiyati ag'darilgach o'lkada o'z parlamenti, vazirlar mahkamasi va prezidentiga ega bo'ladigan Turkiston Demokratik Respublikasi tashkil etilishi ko'zda tutildi. O'z-o'zidan bu respublika Buyuk Britaniya tasirida bo'lishi va inglizlar amalga oshirgan barcha xarajatlarni qoplash uchun Turkiston hududidagi tabiiy boyliklarni o'zlashtirish uchun ularga bir qator imtiyozlar berishi kerak edi[15]. Shartnoma muddati (protektoratlik) 55 yilga mo'ljallangandi[16]. Lekin bu masalada yakuniy rasmiy xujjat imzolalmagan va tashkilot ichida ham yakdillik bo'lmagan. Polkovnik Zaytsev bunga qarshi chiqadi. U buni Rossiyaning qolgan markaziy va asosiy qismiga nisbatan makkorona xiyonat deb hisoblaydi[17]. Ayrim rahbarlarda kelishuv faqat bir parcha qog'oz ko'rinishida bo'lib qolaveradi degan fikr mavjud edi. Sovet hokimiyati ag'darilib, yangi davlat tuzilmasi tashkil etilgandan keyin Buyuk Britaniya o'zining bu yerdagi vakillari tomonidan aytilgan xayoliy protektoratni talab qilmaydi, agar

u xohlaganida ham, Turkiston uning mulklaridan (Hindiston) juda uzoqda joylashganligi sababli, u qat'iy ta'sir choralari ko'rishga qodir bo'lmadi, boshqa kuchlar ham bunga yo'l qo'ymasdi, kelajakda Turkiston Rossiyaning qolgan qismi bilan qo'shiladi degan g'oya bo'lgan.

1918-yil avgustda Toshkentda "Turkiston harbiy tashkiloti" asosida "Bolshevizmga qarshi kurash Turkiston ittifoqi" tuzildi. Bu tashkilot Rossiyada sovet hukumatiga qarshi kurashayotgan ataman Dutov, general Denikin, qozoq Alash-o'rda hukumati, Xiva va Buxoro hukmdorlari, Turkistondagi milliy ozodlik harakat ishtirokchilari, inglizlar bilan aloqa o'rnatgan edi. 1918-yil avgust oyida Turkiston harbiy tashkiloti tomonidan sovet hukumatiga qarshi umumiy qo'zg'olonning yangi rejasi ishlab chiqiladi. Reja quyidagilardan iborat edi:

Barcha guruhlariga umumiy qo'zg'olon vaqti haqida oldindan xabar berish;

Orenburg kazaklari atamani general Dutovning Aktyubinskka hujumi bilan umumiy qo'zg'olonning boshlanishi;

Kaspiyorti frontidan hujumga o'tish;

Turkistondagi sovet hukumati Aktyubinsk va Kaspiyortidagi qo'shinlarni qo'llab-quvvatlash uchun zaxira qismlarni yuborganda Farg'onada tuziladigan qo'zg'olonchilar otryadi Toshkentga hujum qilishi;

Bir vaqtning o'zida janubda Junaidxon qo'shinlari Amudaryo ustidagi Chorjo'y ko'prigini egallash maqsadida Chorjo'yga yurish qiladi, shimolda Avliyoota uyezdidan partizanlar otryadi Aris stansiyasidagi temiryo'llar tugunini egallaydi. Natijada Aktyubinsk va Kaspiyorti frontidagi sovet qo'shinlari Turkiston markazidan uzib qo'yiladi;

Buxoro amirligi qo'shinlari tomonidan Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi temiryo'llarni egallab olinishi[18].

Turkiston harbiy tashkiloti o'z harakatlari doirasiga milliy ozodlik harakati ishtirokchilarini ham tortishga intilgan. Turkiston harbiy tashkiloti Toshkentda yyetarli darajada jangovar kuchlarga ega bo'lmaganligi sababli, mavjud kichik kuchlarni birlashtirish, tayyorlash va kerakli paytda to'plashning mutlaqo iloji yo'qligini hisobga olib, Farg'onadagi milliy ozodlik harakati ishtirokchilari bilan hamkorlik qilish, ulardan foydalanish hamda yirik harbiy otryad shakllantirishni rejalashtirdi. 1918-yil sentabr oyi boshlaridan ular bilan muzokaralar boshlangan. Tashkilot bo'lajak otryadning barcha ta'minotini o'z zimmasiga oladi: otlar va anjomlar, qurol-yarog', o'q-dori, oziq-ovqati va boshqa kurash vositalari bilan ta'minlash. Bunda har bir otliq jangchi uchun kunlik 15 rubl, qo'rboshilar uchun alohida to'lov berish ko'zda tutildi[19]. Otryaddagi kuchlarning soni inglizlar tomonidan tashkilot ixtiyoriga beriladigan qurol-yarog' miqdoriga bog'liq edi. Bu masalalar bo'yicha polkovnik Kornilov vodiydagi nufuzli qo'rboshilar Katta Ergash, Eshmatboy va boshqalar bilan muzokaralar olib boradi va qisman ular bilan kelishuvga erishgan. Qo'rboshilar albatta Turkiston harbiy tashkilotiga to'la bo'ysunishni istamagan. Buyuk Britaniya vodiya tuzilajak yangi qo'shinni pul, qurol-yarog' va boshqa narsalar bilan taminlashni o'lkadagi vakillari orqali o'z zimmalariga oladi. Inglizlar Farg'ona vodiysiga taxminan 25 000 miltiq, 40 ta pulemyot va 16 ta tog' to'pi yyetkazib berishni vada qilgan. Qurollar

Hindiston va Eronan keltirilishi, pul mablag'lari Qashg'ardagi ingliz konsuli orqali Qashg'ar banklaridan ajratilishi lozim edi[20]. Turkiston harbiy tashkiloti vakillari polkovniklar Zaytsev va Kornilovlar bu masalada 1918-yil oktabr oyi boshida Farg'ona vodiysida ayrim qo'rboshilar bilan uchrashuvlar o'tkazgan. Qo'qondan 22 verst shimoli-g'arbdagi Eshmatboy qo'rboshi qarorgohidagi uchrashuvda qancha miqdorda va qachon ko'ngillilarni yo'llash mumkinligi masalasida suhbat bo'ladi.

Bu orada (12-oktabr) Toshkentga va Farg'onadagi Turkiston harbiy tashkiloti vakillariga Janubiy Uralda sovetlarga qarshi harakat qilayotgan general Dutovdan elchi yasovul Yudin orqali "Janubiy-sharqiy Rossiya ittifoqi" tuzish masalasida taklif keladi. Genral Dutov o'zi boshchiligidagi poytaxti Orenburg bo'lgan tarkibga Orenburg, Ural, Sibir, Yettisuv, Astraxan, Tersk, Kuban kazak qo'shinlari hududlari, Boshqirdiston, Qozog'iston, Turkiston, Buxoro va Xiva xonligini kirutuvchi ulkan konfederatsiya tashkil etishni rejalashtirgan edi. Bunda hududlarga ichki mustaqillik berish ko'zda tutilgan[21]. Keyinchalik Dutovning bu rejasi amalga oshmagan, Turkiston harbiy tashkiloti ham bu taklifni rad etgan edi.

Turkiston harbiy tashkilotining say-harakatlariga qaramasdan o'lkada sovetlarga qarshi umumiy qo'zg'olon ko'tarish va bolsheviklar hokimiyatini ag'darishga bo'lgan rejalari bu safar ham amalga oshmagan. 1918-yil oktabr oyi oxirida umumiy qo'zg'olonga tayyorgarlik qizg'in kechayotgan pallada to'satdan Turkiston harbiy tashkiloti fosh etiladi. Qo'zg'olonning barbod bo'lishiga xoinliklar, bir qancha maxfiy ma'lumotlarning sizib chiqishi ham sabab bo'lgan. Bolsheviklar Toshkentdagi qo'zg'olonning zarbdor kuchi bo'lishi kerak bo'lgan O'rta Osiyo temiryo'l ustaxonalari ishchilarini va Toshkent zaxiradagi militsiya xodimlarini qurolsizlantirdilar[22]. Toshentda xorijliklar, sobiq zobitlar, shubxali kishilarni ommaviy tintish boshlandi. Toshkent va Farg'onada tashkilotning 50 ga yaqin a'zosi hibsga olindi, qolganlar o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatishga majbur bo'ldi[23]. Tashkilot rahbarlaridan Nazarov hibsga olindi. general Kondratovich yashirinishga muvaffaq bo'ldi. Ingliz Beyli Buxoroga qochib ketdi. Polkovniklar Zaysev, Kornilov Turkiston harbiy tashkilotining fosh etilishi munosabati bilan Farg'ona viloyatini tark etadi. Kornilov Toshkent atrofida yashirinish, Zaytsev esa Turkiston yaqinida qo'lgan olinadi. Keyinchalik Kornilov topib otib tashlanadi, Zaytsev esa qamoqdan qochib 1919-yil Orenburgga general Dutov oldiga o'tib ketishga muvaffaq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Turkiston harbiy tashkiloti faoliyati murakkab va muvaffaqiyatsiz kechgan. Qurol-yarog', pul mablag'lari yyetishmagan. Mahalliy bo'limlarning har biri yyetakchi mavqeni egallashga, birinchi bo'lib ajralib chiqishga harakat qilgan. Turkistonda sovetlarga qarshi umumiy qo'zg'olon amalga oshmaganiga qurol-yarog' yyetishmovchiligi ham katta sabab bo'lgan. Harbiy harakatlarda ishtorik etishi zarur bo'lgan guruhlar yaxshi qurollanmagan, intizomsiz, yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan edi. Qurol-yarog' va zarur ta'minotni sotib olish, shuningdek ko'ngillilarni yollash uchun ham moliyaviy mablag'lar yo'q edi.

ADABIYOTLAR

1. Ерметов А. Туркестонда назорат органлари фаолияти. – Тошкент: 2007. – Б. 19.
2. Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане (Документы и материалы). Т. 1. – Алма-Ата. 1963. – С. 82.
3. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 59.
4. Ганин А.В. Большая игра генерал-майора И.М. Зайцева // БЕЛАЯ ГВАРДИЯ, 2005. № 8. – С. 197.
5. Ганин А.В. Большая игра генерал-майора И.М. Зайцева // БЕЛАЯ ГВАРДИЯ, 2005. № 8. – С. 196.
6. Michael Sargent. British Military Involvement in Transcaspia (1918-1919). – London., 2004. – P. 17.

7. Ганин А.В. «Наша Туркестанская военная организация... вошла в соглашение С английским правительством». Доклад полковника И. М. Зайцева войсковому атаману Оренбургского казачьего войска генерал-лейтенанту А.И.Дутову 1919 // История. Научное обозрение Ostkraft, 2019. № 2(8). – С. 45.
8. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 59.
9. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 57.
10. Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане (Документы и материалы). Т 1. – Алма-Ата. 1963. – С. 83.
11. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 66.
12. Ганин А.В. Большая игра генерал-майора И.М. Зайцева // БЕЛАЯ ГВАРДИЯ, 2005. № 8. – С. 197.
13. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 61.
14. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 60.
15. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 62.
16. Ганин А.В. «Наша Туркестанская военная организация... вошла в соглашение С английским правительством». Доклад полковника И. М. Зайцева войсковому атаману Оренбургского казачьего войска генерал-лейтенанту А.И.Дутову 1919 // История. Научное обозрение Ostkraft, 2019. № 2(8). – С. 46.
17. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 63
18. Ганин А.В. Большая игра генерал-майора И.М. Зайцева // БЕЛАЯ ГВАРДИЯ, 2005. № 8. – С. 197-198.
19. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 68.
20. Ганин А.В. Большая игра генерал-майора И.М. Зайцева // БЕЛАЯ ГВАРДИЯ, 2005. № 8. – С. 198.
21. Ганин А.В. Большая игра генерал-майора И.М. Зайцева // БЕЛАЯ ГВАРДИЯ, 2005. № 8. – С. 199.
22. Зайцев И. Из недавно пережитого // Соловецкие острова, 1926. Апрель. № 4. – С. 64.
23. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Ташкент, 2000. – С. 136.